Maxmudova Zulxumor Alim qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; zulhumor.m@urdu.uz)

LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O'QITISHNING PEDAGOGIK USULI SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatishning samarali pedagogik usuli sifatida nazariy jihatdan tahlil qilinadi. PBL metodining mazmuni, afzalliklari va cheklovlari haqida ilmiy adabiyotlar asosida fikr yuritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh psixologiyasi, o'yin faoliyati va til o'zlashtirishga bo'lgan tabiiy moyilligi bu metodologiyaning ahamiyatini yanada oshiradi. Maqola tajriba emas, balki nazariy manbalar tahliliga asoslanadi va PBL yondashuvini amaliyotga joriy qilish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: *loyihaviy yondashuv (The Project approach), loyihaga asoslangan ta'lim (PBL), maktabgacha ta'lim, ingliz tili, chet tili o'qitish, Reggio Emilia yondashuvi, akademik yutuqlar, ijtimoiy-emotsional rivojlanish*

ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье теоретически рассматривается проектное обучение (PBL) как эффективный педагогический метод обучения иностранному языку, в частности английскому, детей дошкольного возраста. На основе анализа научной литературы обсуждаются содержание, преимущества и ограничения метода PBL. Особенности возрастной психологии дошкольников, их естественная склонность к игровой деятельности и восприятию языка дополнительно подчёркивают актуальность данной методики. Работа основана на теоретическом анализе, а не на эмпирическом опыте, и завершается рекомендациями по практическому внедрению подхода PBL.*

Ключевые слова: *проектный подход, проектно-ориентированное обучение (PBL), дошкольное образование, английский язык, преподавание иностранных языков, подход Реджо-Эмилии, академическая успеваемость, социально-эмоциональное развитие.*

PROJECT-BASED LEARNING AS A PEDAGOGICAL METHOD OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. *The article theoretically examines project-based learning (PBL) as an effective pedagogical method for teaching a foreign language, in particular English, to preschool children. Based on the analysis of scientific literature, the content, advantages and limitations of the PBL method are discussed. The peculiarities of the age psychology of preschoolers, their natural inclination to play activities and language perception additionally emphasize the relevance of this method. The work is based on theoretical analysis, rather than empirical experience, and concludes with recommendations for the practical implementation of the PBL approach.*

Key words: *The Project approach, project-based learning (PBL), preschool education, the English language, teaching foreign languages, Reggio Emilia approach, academic achievement, social-emotional development.*

Kirish. Tobora avj olib borayotgan global raqobat sharoiti va ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida keng qo'llanilishi oqibatida, bolalarning erta yoshdan boshlab chet tilini o'rganishi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yurtimizda maktabgacha ta'lim rivoji uchun olib borilayotgan islohotlarning samarasi o'laroq 2018-yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchisi shtati ochildi. Sohada mutaxassislar yetishmasligi va o'quv jarayonida yuzaga kelayotgan qator muammolarni bartaraf etish uchun 2018-yildan boshlab, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida maktabgacha ta'lim yo'nalishida ingliz tili o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha qabul ochildi [1;54-b.]. So'nggi yillarda olib borilgan qator mahalliy tadqiqotlar bog'chalarda hali ham chet tili o'qitish jarayonini isloh qilish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

An'anaviy o'qitish uslublari ko'p hollarda yod olib o'rganishga (rote learning) asoslangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning xos ko'nikma va malakalarni shakllanishi va ularning kognitiv rivojlanish ehtiyojlariga to'liq to'g'ri kelmasligi mumkin. Shu boisdan bolalarning tabiiy ehtiyojlariga mos, faol va interaktiv yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) bo'lib, u chet tili o'qitishda yangi pedagogik imkoniyatlarni taqdim qiladi. Ushbu maqolada loyihaga asoslangan ta'limning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi va maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish usuli sifatida tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalqaro kontekstda amaliy fanlar va chet tilini o'rgatishda loyihaga asoslangan ta'limning ahamiyati oshib bormoqda. Loyihaviy faoliyat asosida o'qitish (PBL) bu o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan, amaliy va hamkorlikdagi loyihalar asosida bilim va ko'nikmalarni egallashga undaydigan o'qitish uslubidir. Bu yondashuvda o'quvchilar o'zlarining bilimlarini til orqali ifodalash, muloqot qilish va ijodiy fikrlash orqali mustahkamlab boradilar. PBLning aniq qabul qilingan ta'rifi mavjud bo'lmasa ham, umumiy ta'rifini quyidagicha izohlash mumkin: "Murakkab, hayotiy muammolar va batafsil ishlab chiqilgan natijalar va vazifalarga yo'naltirilgan tadqiqot jarayoni orqali, o'rganuvchilarni bilim va ko'nikmalarni o'rganishga jalb qiladigan tizimli o'qitish usulidir [2;4-b.]. Loyihaga asoslangan ta'limning tarixi 1938-yilga borib taqalib, ta'limshunos Jon Dyui o'quvchilarga tajriba orqali ta'lim berishni targ'ib qiladi. Uning fikriga ko'ra, o'quvchilar faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishlari kerak. Dyui, "ta'lim – bu hayotning bir qismi" deb ta'kidlaydi va o'quvchilarga faol va amaliy ishlarni taqdim etish muhimligini aytadi [3;25-31-b.]. Keyinchalik, uning shogirdi bo'lmish Kilpatrik "Project method" maqolasida bu yondashuvni yanada rivojlantirgan va bu metodni ilk marta ta'lim sohasida tadbiq qiladi. Kilpatrik ushbu maqolada o'quvchilarni o'z qiziqishlari asosida loyihalar ustida ishlashga undagan [4;18-b.]. Bu maktabgacha ta'limdagi o'yin orqali o'rgatish tamoyiliga ham mos keladi. Loyiha usuli asosan amaliy va ijtimoiy fanlar, san'at va dizayn sohasida qo'llanila boshlagan bo'lsada, keyinchalik, 1980–1990-yillarda kommunikativ til metodi rivojlanishi bilan chet tili o'qitish metodikasida keng qo'llanila boshlaydi. Buni o'rganuvchilarning chet tilni o'rganishda faol ishtiroki, muammolarni mustaqil hal qilish (tanqidiy fikrlashni oshiradi), hamkorlik va tilni sun'iy muhitda emas, balki real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ehtiyojini oshib borishi bilan izohlash mumkin. Stoller o'z maqolasida ingliz tili darslarida PBL metodikasining dastlabki konseptual modelini taqdim etadi va bu chet tili darslarida loyihaviy metodni qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi [5;2–9 b.]. Maktabgacha ta'limda esa loyiha metodining dastlabki g'oyalari va elementlari 1945-yildan boshlab Italiyaning Reggio Emilia shahrida qo'llana boshlagan. Bu PBLga juda yaqin bo'lgan, bolalarning tashabbusi, qiziqishlari va izlanishlariga asoslangan maktabgacha ta'lim modelidir. Bu modelda loyihalar, tajribalar va bolalarning faol ishtiroki asosiy o'rinda turadi. Reggio Emilia yondashuvi, ko'p hollarda, *PBLning maktabgacha bosqichdagi zamonaviy ko'rinishi* sifatida tan olinadi. Bu yondashuvda bola – kuchli, qobiliyatli va faol o'rganuvchi, o'qituvchi – hamroh va yo'lboshchi, ota-onalar – ta'lim jarayoning faol ishtirokchisi, muhit esa "uchinchi o'qituvchi", ya'ni bolani o'rganishga undaydigan, ilhomlantiradigan tarzda sifatlanadi [6;141–144-b.]. Bu yondashuv bolalarning ingliz tilini real hayotiy kontekstda o'rganib, til ko'nikmalarini mustahkamlashi va ularning tilga nisbatan qiziqishini oshirishi bilan muhimdir.

Reggio Emilia yondashuvi 1980-yillardan keyin "Project Approach" deb atala boshlagan. Bu davrda pedagoglar o'rganish jarayonini bolalar uchun aniq bir loyiha asosida tuzishga ko'proq e'tibor berishdi. Aslida, Reggio Emilia yondashuvining "project-based learning" (PBL) qismida o'rganish loyihalar orqali amalga oshiriladi, bu o'z-o'zidan loyiha asosidagi yondashuvni yaratadi. "Project Approach" Reggio Emilia yondashuvini metodik tarzda yanada chuqurlashtirib, bolalarga real muammolarni hal qilish orqali o'rganish imkoniyatini beradi. Bu metodologiya nafaqat Italiyada, balki butun dunyoda bolalar ta'limida keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, Reggio Emilia yondashuvi va Project Approach o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, har ikkisi ham bolalarning o'rganish jarayonida mustaqil va faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarga loyiha yondashuvi asosida ta'lim berish va ularga chet tili o'qitish metodikasiga oid juda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Fatma Kimsesiz va b. Turkiyada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili lug'atini o'rgatishda loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) metodining samaradorligini o'rganadi. 8 hafta davomida 5–6 yosh oralig'idagi bolalarga ekperimental va an'anaviy guruhlarda dars olib borilib, an'anaviy metodlar va PBL metodi asosida mashg'ulotlar o'tiladi. Eksperiment guruhlarda bolalarning lug'at o'zlashtirish darajasi, darsdagi faolligi yuqori bo'lgan. Shuningdek, yangi metodning bolalarning motivatsiyasi va kognitiv rivojlanishiga ta'siri aniqlangan [7; 436-439 b.]. G.A.Vanessa esa maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda ramziy drama (symbolic play) metodini loyiha metodiga integratsiya qiladi. Vanessaning fikriga ko'ra, bolalar o'quv jarayonida xayoliy rollarga kirib, butun yil davom etuvchi sarguzashtli loyihalarda ishtirok etadilar [8;12-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola nazariy tadqiqot bo'lib, maktabgacha yoshdagi ingliz tilini o'qitishda loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot sifatli (qualitative research) bo'lib, ilmiy manbalarni tahlil qilish, xorijiy va ma-

halliy tajribalarni solishtirish hamda nazariy asoslarga tayanib, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishni koʻzda tutadi.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini oʻqitish bugun uzluksiz taʼlim tizimining eng muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar bilimini shakllantirish, ularni faollikka undash, mustaqil fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish va til oʻrganishning eng samarali usullarini qoʻllash mazkur sohaning eng dolzarb vazifalari boʻlib qolmoqda. Loyiha asosida oʻqitish metodikasini til oʻrganish jarayoniga tadbiq qilgan Stollerning fikriga koʻra, loyihaviy ish integrativ metod boʻlib, til va mazmunni birlashtirgan holda, oʻquvchilarni ijodiy, mustaqil va amaliy faoliyatga jalb etadi. Oʻrganuvchilarning rejalashtirish, tadqiqot olib borish va taqdimotlar qilish orqali motivatsiyasi va masʼuliyat hissi oshadi. Loyiha asosida oʻqitish nafaqat til koʻnikmalari, shuningdek, tadqiqotchilik, jamoa boʻlib ishlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va prezentatsiya koʻnikmalarni ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar sharhida aytib oʻtilganidek, Stoller tayyorlov bosqichi (preparation), rejalashtirish (planning), izlanish (research), axborotlarni tahlil qilish (collation and analysis), taqdimot (reporting) va baholash (evaluation) kabi pogʻonalardan iborat 6 bosqichli modelni taklif qiladi. Stoller turli olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, loyihalarning *umumiy xususiyatlarini* quyidagicha taʼriflaydi:

1. Loyiha ishi aniq til malakalariga emas, balki mazmunni tushunishga yoʻnaltiriladi. Oʻquvchilar uchun qiziqarli boʻlgan hayotiy muammolar va vaziyatlar loyihalarning markaziga aylanadi.

2. Loyiha ishida asosiy rol oʻquvchiga beriladi, biroq oʻqituvchi butun jarayonda yordam va koʻrsatma berishda asosiy rol oʻynaydi.

3. Loyihaviy ish raqobatga emas, balki hamkorlikka asoslanadi. Oʻquvchilar individual shaklda, kichik guruhlarda yoki butun sinf boʻlib ishlashlari mumkin. Ular resurslar va gʻoyalarni boʻlishishadi va butun jarayon davomida maslahatlashishadi.

4. Loyiha ishi koʻnikmalarning autentik integratsiyasi va hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi turli xil manbalardan maʼlumotlarni qayta ishlashni taqozo etadi.

5. Asosiy maqsad oʻlaroq loyiha ishi oxirida boshqalar bilan ulashish mumkin boʻlgan aniq bir natija yoki mahsulotga aylanadi (masalan, ogʻzaki taqdimot, plakat, devoriy gazetalar, hisobot, sahna koʻrinishi va b.). Biroq loyihaning qiymati faqat yakuniy mahsulotda emas, balki shu nuqtaga yetishish jarayonining oʻzidadir. Shunday qilib, loyihaviy ish ham jarayonga, ham natijaga yoʻnaltirilgan boʻlib, oʻquvchilarga loyiha ishining turli xil bosqichlarida tilning ravonligi (fluency) va toʻgʻriligi (accuracy) ustida ishlash imkonini beradi.

Stollerning xulosasiga koʻra, PBL oʻqituvchidan koʻproq vaqt va rejalashtirishni talab qilsa-da, sifatli va mazmuni oʻquv jarayonini taʼminlaydi [5;2–9-b.].

Maktabgacha taʼlim tizimida loyihaga asoslangan taʼlim metodini qoʻllash, shuningdek, mazkur pedagogik usuldan ingliz tili darslarida foydalanish holatlarini xorijiy kontekstda koʻplab uchratish mumkin. Yetakchi olimlardan Helm va b. loyiha yondashuving nazariy va amaliy jihatlarini yoritib beradi. Mualliflar maktabgacha taʼlimda PBL jarayonini asosiy 3 bosqichga ajratadi :

1. *Preparation phase* – loyihaga tayyorgarlik bosqichi boʻlib, bolalarning mavzuga oid mavjud bilimlari aniqlanadi va loyiha mavzusi aniqlashtiriladi.

2. *Investigation phase* – tadqiqot bosqichi boʻlib, bolalar ekskursiyalar, tajribalar, suhbatlar orqali bilimni kengaytirishga yoʻnaltiriladi.

3. *Culminating event* – natijalarni taqdim qilish bosqichi boʻlib, bolalar oʻz loyihalarini namoyish etadi va baholash ishlari olib boriladi .

Bolalar tadqiqotchi rolida, oʻqituvchi – yoʻnaltiruvchi, qoʻllab-quvvatlovchi sifatida namoyon boʻladi.

Helm ilk yoshda loyiha asosida oʻqitishning bir qator afzalliklarini sanab oʻtadi:

– *akademik yutuqlar* (bolalar yangi qiziqarli mavzularni chuqur oʻrganish orqali mustaqil yozish, oʻqish, matematik koʻnikmalarni shakllantiradi);

– *ijtimoiy-emotsional rivojlanish* (bolalar oʻz his-tuygʻularini anglaydi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni oʻrganadi);

– *ota-onalarning ishtiroki* (bolalarning taʼlim jarayonida ota-onaning ishtiroki ularning muvaffaqiyatiga sezilarli taʼsir qilishi tadqiqotlar bilan isbotlangan) [9;4–11-b.].

Helm kichik yoshdagi bolalar bilan loyiha ishlarini amalga oshirishda quyidagi muammolar va qiyinchiliklarni sanab oʻtadi:

– *o'quv dasturi talablari va standardlariga mosligi* (Loyiha o'quv dasturida belgilangan barcha ta'limiy maqsadlari qamrab olmaydi, lekin asosiy mazmun va malakalarga murojaat qiluvchi kontekst yaratib beradi; dastlabki savodxonlik tajribalarini qamrab oladi);

– *ota-onalarni loyihalarga jalb qilish* (ba'zi ota-onalar hayotiy tajribalari tufayli, o'zlarini noqulay his qilishi mumkin, shu sabadan, to'g'ri mavzu tanlash va ota-onalarni qanday taklif qilish muhim);

– *texnologiyalardan foydalanish* (loyiha davomida kerak bo'ladigan texnologiyalar va uskunalardan foydalanish yosh bolalardan ko'ra kattalar uchun qiziqarliroq, chunki bolalar qo'l bilan bajariladigan amaliy faoliyatlarni yoqtiradi);

– *maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash* (masalan, qobiliyatlari turli bo'lgan bolalar, 3 yoshgacha bo'lgan bolalar, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar va hokazo)

- *loyihaning tashkilot ma'muriyati tomonidan qo'llab-quvvatlanishi* [9;67–81-b.].

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini loyihaviy yondashuvga yo'naltirmasdan, mashg'ulotlar davomida va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'quv rejadagi mavzularga mos kichik loyihalar o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi va o'quv jarayoniga yanada mazmun baxsh etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar PBL metodining samaradorligini tajriba asosida ham tasdiqlagan. Masalan, Kimsesiz va b. loyiha ishiga asoslangan darslarning 5–6 yosh oralig'idagi bolalarda ingliz tilidagi lug'at boyligini oshirishda samaradorligini o'rgangan. Bu tadqiqot natijasida PBL Turkiya maktabgacha ta'lim tizimida juda kam qo'llanilishi, an'anaviy metodlarga nisbatan ingliz tili lug'at boyligini o'rganishda samaraliroq ekanligi, PBL sinflarida bolalar yanada faol va motivatsiyaga ega bo'lishi, eksperimental guruh o'rganuvchilari yuqoriroq natijalarga erishishlari aniqlandi [7;432–433-b.].

Maktabgacha ta'lim tizimida loyihaviy yondashuv yoki loyihaga asoslangan ta'lim metodi asosida o'qitish holatlari bo'yicha Italiya, Finlandiya, AQSH, Avstraliya, Shvetsiya, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlar yetakchi o'rinda turadi. Yurtimizda esa MTTlarda pedagog xodimlarning irodasi va ijodkorligiga bog'liq holda mavzudan kelib chiqib loyihaga asoslangan ta'limning ayrim elementlari yoki namunalari qo'llanilsada, bu usul hali maktabgacha ta'lim tizimiga asosiy pedagogik usullardan biri sifatida kirib bormagan.

Xulosa va takliflar. Loyihaga asoslangan ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitishda istiqboli va samarali uslub sifatida e'tirof etishilishi mumkin. U bolalarning yoshiga xos rivojlanish xususiyatlariga mos keladi, faollikni rag'batlantiradi va tilni o'zlashtirish uchun tabiiy muhit zaminini yaratadi; bolalar tilni faqat bilim emas, balki vosita sifatida idrok etadilar. Biroq bu metodni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun o'qituvchilardan maxsus tayyorgarlik, munosib muhit va resurslar talab qilinadi.

Asosiy manbalardan olingan ma'lumotlardan xulosa qilib, pedagoglar uchun mashg'ulotlarda loyihaga asoslangan ta'lim usulini qo'llash yuzasidan quyidagi tavsiyalarni taqdim qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– maktabgacha ta'lim tashkilotlarida PBL elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Dastlab kichik loyihalardan boshlab, keyinchalik kompleks loyihalarga o'tish lozim;

– maktabgacha ta'lim sohasida ishlayotgan chet tili o'qituvchilari va pedagoglar uchun loyiha asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi metodik qo'llanmalar va amaliy seminarlar tashkillashtirish lozim;

– o'yin, drama, san'at kabi faoliyat turlarini PBLga integratsiya qilish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tiborini saqlab qolish mumkin;

– ota-onalarni ham loyihaviy faoliyatga jalb qilish va bu orqali bolalarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish mumkin;

– baholash tizimining muqobil shakllari – portfolio, kuzatuvlar va bolalarning mustaqil ifoda qilish ko'nikmalarini o'lchash.

Xulosa qilib aytish mumkinmi, internetga qaramlik oshayotgan, davlatlar o'rtasida iqtisodiy raqobat jadal tus olayotgan va sun'iy intellekt inson omilini siqib chiqarayotgan davrda xushyorlik, har jabhada faollik, tanqidiy va ijodiy fikr, zamonaviylik kabi xislatlarga ega bo'lishga ehtiyoji bo'lgan alfa avlodlarini (raqamli texnologiyalar bilan tug'ilgan va ulg'ayayotgan birinchi avlod) tarbiya qilish loyihaga asoslangan ta'lim kabi zamonaviy va amaliy yondashuvni tadbiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayni davrdagi islohotlar davlatning 20 yildan keyingi va uning asosida yana davom etuvchi ta'lim tizimining taqdirini hal qiladi. Zero, ilk bolalik davri insonning keyingi umri davomidagi muvaffaqiyatini belgilab beruvchi tamal toshidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Акбарова Ш.Ҳ. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тили лексикасини ўқитиш методикаси. Дисс. п.ф.н. (PhD), Т., 2020, 5-бет.

(2). Thomas, J.W., Mergendoller, J.R., & Michaelson, A.L. Project-Based Learning: A Handbook for Middle and High School Teachers. Autodesk Foundation, 1999, p. 4.

(3). Dewey, J. Experience and Education. Macmillan, 1938, p. 25–31.

(4). Kilpatrick, W.H. The project method: The use of the purposeful act in the educative process. Teachers College, Columbia University, 1918, 27 p.

(5). Stoller, F. L. Project work: A means to promote language and content. English Teaching Forum, 1997, p 2–9.

(6). Edwards C., Gandini, L., & Forman, G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach – Advanced Reflections. Ablex Publishing, 1998, 141–144 p.

(7). Kimsesiz, F., Dolgunsöz, E., & Konca, M.Y. The Effect of Project-Based Learning in Teaching EFL Vocabulary to Young Learners of English: The Case of Pre-school Children. International Journal of Languages' Education and Teaching, 2017, p. 426–439.

(8). Vanessa G.A. Symbolic play as a didactic tool in teaching English in a project-based learning approach. Greensboro College ProQuest Dissertations&Theses, 2024, p. 12.

(9). Helm J.H., Katz, L.G., & Wilson, R. Young investigators: The project approach in the early years (4th ed.). Teachers College Press, 2023, p. 4–11; 67–81.

Abdirahmonov Lazizbek Latipboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti),

Sadullayev Ruslanbek Xudashkurovich (Urganch davlat pedagogika instituti magistranti)

YOSH VOLEYBOLCHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIGINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh voleybolchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik)larni rivojlantirish metodlarini, tezlik-kuchlilik jismoniy sifatlarga mansub bo‘lib, oyoq mushaklarining qisqa vaqt ichida kuchli qisqarish usullarini, hayotiy zarur harakat malakalarini (yurish, yugurish, sakrash, to‘xtash, osilish va h.k.) shakllantirish o‘yinlar va usullar ishlab chiqilgan. Voleybolchilarning o‘ziga xosligi bo‘yicha yosh voleybolchilarga harakatlarni yuqori darajada muvofiqlashtirish bo‘yicha dolzarb masalalari va jihatlari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy sifat, voleybol, jismoniy madaniyat, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik, zarba, texnika, taktika, jismoniy tayyorgarlik, musobaqa.*

СПЕЦИАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ ЧЕРЕЗ АКТИВНЫЕ ИГРЫ

Аннотация. *В данной статье разработаны методы развития физических качеств (силы, быстроты, ловкости, выносливости и гибкости), методы сильного сокращения мышц ног за короткий промежуток времени, так как скоростно-силовые качества относятся к физическим качествам, игры и методы формирования жизненно важных двигательных навыков (ходьба, бег, прыжки, остановка, висение и др.). Описаны актуальные вопросы и аспекты развития координации движений юных волейболистов на высоком уровне с учетом особенностей волейболисток.*

Ключевые слова: *физическое качество, волейбол, физическая культура, сила, быстрота, ловкость, выносливость, гибкость, удар, техника, тактика, физическая подготовка, соревнование.*

SPECIAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ENHANCEMENT THROUGH ACTION GAMES

Annotation. *In this article, the methods of developing physical qualities (strength, quickness, agility, endurance and flexibility), the methods of strong contraction of the leg muscles in a short time as speed-strength belongs to the physical qualities, the games and methods of forming vital movement skills (walking, running, jumping, stopping, hanging, etc.) have been developed in this article. Current issues and aspects of high-level coordination of movements for young volleyball players according to the characteristics of volleyball players are described.*

Key words: *physical quality, volleyball, physical culture, strength, quickness, agility, endurance, flexibility, kick, technique, tactics, physical training, competition.*

Kirish. Mamlakatimizda voleybol sport turi bugungi kunda eng ommalashgan sport turlari tarkibiga mansubdir. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, yurtimizda katta-yu kichik yoshdagi o‘quvchi-yoshlar voleybol sport turi bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.